

Zarafshonda oyna ishlab chiqarish mahalliyashtirildi



Prezidentning Navoiy viloyatiga tashrifi chog'ida "Zarafshon oyna" korxonasini ishga tushirishga bag'ishlangan marosim bo'ldi.

Ma'lumki, oyna sanoat, qurilish va maishiy hayotda eng ko'p ishlatiladigan mahsulotlardan. Xususan, yurtimizda qurilish oynasiga bo'lgan talab yiliga 38 million kvadrat metr. Navoiy viloyati esa pardozbop tosh, kvars qumi, bazalt va kaolin zaxiralariga boy.

Shu bois davlatimiz rahbari 2018-yilda viloyatga tashrifi chog'ida oyna ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatma bergan edi. Bugunga kelib, 250 million dollarlik ushbu loyiha hayotga ko'chdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ramziy tugmani bosib, "Zarafshon oyna" korxonasini ishga tushirdi.

- Hozirgacha bunday korxonalar Farg'ona va Jizzaxda bor edi. Mana, ularning safiga yangi barpo etilgan, keng turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Zarafshon oyna" korxonasi ham qo'shilmog'qa. U kelgusida yanada rivojlanib, xalqimizga xizmat qilishiga ishonamiz, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvati 12 million kvadrat metr. Mahsulotlar import o'rnini bosish bilan birga eksportga ham mo'ljallangan. Bu yerda 700 kishi ish bilan ta'minlangan.

Tadbirda G'ozg'on shahridagi "Marmarobod" korxonasi bilan ham videoaloqa orqali bog'lanildi. U marmar va granit toshlarni qazib olib, qayta ishlashga ixtisoslashgan. Xitoy va Eron davlatlaridan uskunalar olib kelinib, muhandis va mutaxassislar jalb qilingan. 300 kishi ish bilan ta'minlangan.

Davlatimiz rahbari Navoiy shahridagi "Gidro Stanko Servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Navoiy viloyati sanoatlashgan hudud. Bu yerda tog'-kon, metallurgiya, kimyo, energetika korxonalari ko'p. Ularga, umuman, yurtimiz sanoati va qishloq xo'jaligiga mashinasozlik mahsulotlari doim zarur.

“Gidro Stanko Servis”da aynan shular ishlab chiqariladi. Bu yerda kooperatsiya orqali 100 dan ortiq qurilma va mingdan ortiq turdagi ehtiyot qismlar mahalliyashtirilgan. Natijada 2021-yilda 12 million dollardan ziyod valyuta mablag‘larini tejashga erishilgan. Joriy yil yakuni bilan ishlab chiqarish miqdori 23 million dollar bo‘lishi kutilmoqda.

Korxonaga uskunalari Germaniya, Turkiya, Italiya va Xitoydan keltirib o‘rnatilgan. 370 kishi ish bilan ta‘minlangan.

Bugungi kunda korxonada quyuv sexi tashkil etish va mahsulotlar turini ko‘paytirish ustida ish olib borilmoqda.

Prezidentimiz mutasaddilarga mahalliyashtirish darajasini oshirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Bugungi kunda Navoiy viloyatida mahalliyashtirish dasturi doirasida qiymati 1 trillion so‘mga yaqin 113 ta loyihalar amalga oshirilmoqda. Bularning natijasida joriy yilning o‘zida 100 million dollarlik import qisqartirilishiga erishiladi.





Manba